



Iran's Competitors and Strategic Partners in Central Asia: The Search for Geopolitical Balance

Siroj SAPAROV¹

University of World Economy and Diplomacy

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025
Received in revised form
15 May 2025
Accepted 25 May 2025
Available online
15 June 2025

Keywords:

Geopolitical competition,
Russia,
China,
India,
strategic interests.

ABSTRACT

In this article, the author analyzes Iran's position in the geopolitical competition in Central Asia. Although Iran is attempting to avoid direct competition with major powers in the region, such as Russia and China, there remains a risk of conflicting interests with them. Particularly against the backdrop of China's economic dominance and Russia's political-militaristic stance, Iran is utilizing transit, energy, and diplomatic means to enhance its influence. Collaboration with India serves to strengthen Iran's position in Central Asia in the context of tensions with the West. The article also explores how Iran is striving to achieve a strategic balance in this complex competitive arena.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss5/S-pp72-76>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Eronning Markaziy Osiyodagi raqobatchilari va strategik hamkorlari: geosiyosiy muvozanat izlanishlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

geosiyosiy raqobat,
Rossiya,
Xitoy,
Hindiston,
Markaziy Osiyo,
strategik manfaatlar.

Ushbu maqolada muallif tomonidan Eronning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy raqobatdagi o'rnini tahlil qilinadi. Eron mintaqada Rossiya va Xitoy kabi yirik kuchlar bilan bevosita raqobat qilmaslikka urinayotgan bo'lsa-da, ular bilan manfaatlar to'qnashuvi xavfi mavjud. Ayniqsa, Xitoyning iqtisodiy ustunligi va Rossiyaning siyosiy-militaristik pozitsiyasi fonida Eron o'z ta'sirini oshirish uchun tranzit, energetika va diplomatiya vositalaridan foydalanmoqda. Hindiston bilan hamkorlik esa Eronning Markaziy Osiyodagi pozitsiyasini G'arb bilan ziddiyatlar fonida mustahkamlashga xizmat qiladi.

¹ Master degree student, University of World Economy and Diplomacy. Tashkent, Uzbekistan.
E-mail: siroj5768@gmail.com

Maqolada, shuningdek, Eronning ushbu murakkab raqobat maydonida qanday strategik muvozanatga erishishga harakat qilayotgani yoritiladi.

Конкуренты и стратегические партнеры Ирана в Центральной Азии: поиски геополитического равновесия

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

геополитическая конкуренция, Центральная Азия, Россия, Китай, Индия, стратегические интересы.

В статье рассматривается роль Ирана в условиях геополитической конкуренции в Центральной Азии. Несмотря на стремление избежать прямого противостояния с такими державами, как Россия и Китай, интересы Ирана нередко пересекаются с их стратегическими целями. В условиях экономического доминирования Китая и военно-политического влияния России Иран пытается усилить своё присутствие через транзитную дипломатию, энергетические связи и прагматичные альянсы. Сотрудничество с Индией рассматривается как элемент балансировки, особенно на фоне санкционного давления Запада. В статье анализируется, как Иран выстраивает стратегию в этом сложном конкурентном поле.

KIRISH

Markaziy Osiyo bugungi kunda global kuchlar o'rtasidagi geosiyosiy raqobat markaziga aylangan. Rossiya, Xitoy va AQSh mazkur hududda o'z ta'sirini saqlashga harakat qilayotgan bir paytda, Eron ham mintaqaga kirib borish va o'z manfaatlarini ilgari surish yo'lida kurashmoqda. Garchi Eron bu raqobatda bevosita to'qnashuvdan qochsa-da, u Rossiyaning siyosiy-militaristik ta'siri, Xitoyning iqtisodiy ekspansiyasi va G'arb sanksiyalari fonida o'z o'rnini topishga urinmoqda.

Eron mintaqadagi logistika imkoniyatlari, Chobahar porti va Shimol-Janub koridori orqali ta'sirini kuchaytirishga intilmoqda. Biroq bu harakatlar Xitoy va Rossiya manfaatlarini bilan kesishadi, bu esa yashirin raqobatni yuzaga keltiradi. Ushbu maqola Eronning Markaziy Osiyodagi asosiy raqobatchilari bilan munosabatlarini, muvozanat strategiyasini va mintaqada ta'sir uchun olib borayotgan kurashini tahlil qiladi.

Rossiya va Eron: Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng Rossiya Markaziy Osiyoda uzoq vaqt davomida asosiy siyosiy va harbiy ta'sir kuchi bo'lib qoldi. 1990-yillarda Rossiya Eronning mintaqadagi rolga ham qisman shubha bilan qaragan – masalan, Eronning islomiy inqilob g'oyalarini tarqatishi mumkinligidan ehtiyot bo'lgan [1]. Biroq hozirgi vaqtda, ayniqsa 2022-yildan keyingi geosiyosiy vaziyatda, Moskva va Tehron Markaziy Osiyoda ko'proq hamkorlik qilishga o'tmoqda. Bunga asosiy omil – G'arb sanksiyalari va bosimiga qarshi birgalikda harakat qilish zarurati. Rossiya va Eron transport sohasida bir-birini to'ldiruvchi ittifoqdosh sifatida shakllanmoqda. Rossiya O'zbekiston, Qozog'iston kabi davlatlarga o'z ta'sirini saqlab qolgan holda, ularga Eron orqali yangi savdo yo'laklari ochilishiga xalaqit bermaydi, balki qo'llab-quvvatlamoda [2]. Masalan, Rossiya Shimol-Janub koridorini rivojlantirish uchun Eron infratuzilmasiga

sarmoya kiritmoqda (Rasht–Astara temiryo‘li qurilishi uchun 1,6 mlrd dollar ajratish va h.k.). Bundan Markaziy Osiyo ham yutadi – Rossiya va Eron hamkorligi natijasida Markaziy Osiyo yuklari uchun shimoldan janubga to‘siqlar kamayadi. Shu bilan birga, Rossiya Eronning Markaziy Osiyoda haddan ziyod siyosiy ta‘sir o‘rttirishini ham xohlamaydi. Aytish joizki, Markaziy Osiyo davlatlari Rossiya bilan xavfsizlik sohasida (Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti – KXShT orqali) va iqtisodiy sohada (Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi – EOI) yaqindan bog‘liq. Eron esa bu tashkilotlarga a‘zo emas. Kelgusida Eronning EOIGA a‘zo bo‘lish ehtimoli ham tilga olinmoqda. Agar shunday bo‘lsa, Eron Markaziy Osiyo bilan iqtisodiy integratsiyani Rossiya boshchiligidagi platforma orqali ham chuqurlashtiradi. Hozircha esa Eron Rossiya bilan ikki tomonlama formatda harakat qilib, Markaziy Osiyoda raqobatdan ko‘ra hamkorlikni afzal ko‘rmoqda.

Xitoy va Eron: Xitoy Markaziy Osiyodagi eng yirik iqtisodiy hamkor bo‘lib, so‘nggi o‘n yillikda “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi (BRI) orqali ulkan infratuzilma va investitsiyalar jalb etdi. Eron ham Xitoyning yaqin strategik hamkoridir – 2021-yilda ikki davlat 25 yillik keng qamrovli hamkorlik bitimini imzoladi.[3] Markaziy Osiyoda Xitoy va Eron munosabatlari ko‘proq hamkorlik va muvofiqlik sifatida namoyon bo‘lmoqda, garchi ba‘zi sohalarda manfaatlar kesishsa-da. Xitoy Eronni BRI doirasidagi muhim bo‘g‘in deb biladi: masalan, Xitoy–Markaziy Osiyo–G‘arbiy Osiyo yo‘nalishi bo‘yicha yuklar Eron orqali Yevropaga chiqishi variantini ko‘rib chiqqan (Xitoyning g‘arbiy provinsiyalaridan Markaziy Osiyo orqali Eron portlariga temiryo‘l va avtomobil yo‘llari). Bu Xitoy uchun Fors ko‘rfazi yo‘nalishini qo‘lga kiritish degani. Hozircha asosiy e‘tiborini Xitoy Pokiston va Markaziy Osiyodagi investitsiyalarga qaratssa-da, Eron hududi BRI uchun muhim bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun Pekin Tehron bilan yaqin aloqada. Eron SHHTga qabul qilinishida Xitoy va Rossiyaning roziligi hal qiluvchi bo‘ldi. Shu bilan birga, iqtisodiy raqobat nuqtai nazaridan, Eron Markaziy Osiyoda Xitoy bilan tenglasha olmaydi – Xitoyning mintaqadagi sarmoyasi va savdo hajmi bir necha o‘n milliard dollarni tashkil etsa, Eronniki bir necha yuz milliondir [4, 5].

Bu holatni eronlik tahlilchilar ham tan oladi: “Eronning savdosi boshqa raqobatchilar bilan solishtirganda maqtanarli emas” deya ta‘kidlanadi [6]. Ya‘ni Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun Xitoy birinchi darajali savdo hamkor bo‘lib qolaveradi, Eron esa faqat qo‘shimcha imkoniyat rolini o‘ynaydi. Shu sababdan, Xitoy va Eron Markaziy Osiyoda to‘qnash kelmaslikka harakat qilmoqda – aksincha, masalan, Xitoyning Markaziy Osiyodan Xuroson (Eron) orqali Yaqin Sharqqa o‘tuvchi trans-eron temiryo‘l loyihalarini birgalikda qo‘llab-quvvatlash ehtimoli mavjud. Kelgusida agar G‘arb bosimi kuchayaversa, Xitoy, Rossiya va Eron o‘zaro yaqinlashib, Markaziy Osiyoda bir-birining manfaatini hurmat qilgan holda integratsion loyihalarni yuritishi mumkin. Xulosa qilish mumkinki, Xitoy va Eron o‘rtasida Markaziy Osiyoda ochiq raqobatdan ko‘ra, soxta raqobat yoki ittifoqdoshlik unsurlari ko‘proq – ular mintaqada G‘arb (AQSh va Yevropa) ta‘sirini cheklashda bir safda turadi, lekin o‘zaro iqtisodiy musobaqada Xitoyning ustunligi shubhasiz.

Hindiston va Eron: Hindiston Markaziy Osiyoda uzoq muddat ikkinchi darajali rol o‘ynab kelgan bo‘lsa-da, so‘nggi paytlarda bu holat o‘zgarib bormoqda. Dehli Markaziy Osiyoga chiqishda Eron hududini eng maqbul yo‘l deb biladi. Chobahar portini rivojlantirishga Hindistonning qiziqishi aslida Markaziy va Janubiy Osiyoni bog‘lovchi aloqalarni kuchaytirish maqsadidir [7]. Hindiston Pokiston bilan murakkab munosabatlari tufayli Markaziy Osiyo bilan savdoda qiyinchilik sezgan; endi Eron orqali

bu qiyinchilikni yengib, mintaqaga kirib borishni xohlaydi. 2015-yilda Hindiston “Markaziy Osiyo bilan aloqalar” yangi strategiyasini e’lon qilgan bo’lib, unda transport, energetika va xavfsizlik yo’nalishlarida hamkorlik ko’zda tutilgan. Eron mazkur strategiyada “kalit” rolini o’ynaydi. Shu bilan birga, Hindiston AQShga yaqin ittifoqdoshlardan biri bo’lgani uchun, Tehron-Dehli munosabatlariga G’arb sanksiyalari o’z ta’sirini o’tkazadi. So’nggi yillarda Eronning Hindistonga neft eksporti deyarli to’xtadi (AQSh sanksiyalari tufayli), savdo hajmi pasaydi. Biroq, Chobahar porti bo’yicha Hindistonga berilgan AQSh istisnosi mavjud – ya’ni AQSh Hindistonga Chobaharga sarmoya kiritish va u yerdan Afg’onistonga gumanitar yordam yo’llashga ruxsat bergan [8]. Bu Hindistonning Markaziy Osiyo yo’nalishidagi faolligi uchun muhim hisoblanadi.

AQSh va G’arb omili: Garchi AQSh so’nggi yillarda Markaziy Osiyoda faol ishtirokini kamaytirgan bo’lsa-da, geosiyosiy fonda G’arb-Eron ziddiyati ham mintaqaga ta’sir etadi. Markaziy Osiyo davlatlari AQSh va Yevropa bilan ham yaxshi aloqalar rivojlantirishga harakat qilmoqda, shu bilan birga Eron bilan hamkorlikni yo’lga qo’yimoqda. Bu ba’zan qiyin muvozanat talab qiladi – masalan, Eron yadro dasturi bo’yicha sanksiyalar Markaziy Osiyoning Eronga savdo-sarmoyasini cheklab qo’yadi (bank operatsiyalari qiyinligi tufayli). Ayrim tahlillarga ko’ra, agar Eron va AQSh o’rtasida kelishuvlar yuzaga kelsa (masalan, yadro bitimi yangilansa), bu Markaziy Osiyo uchun ijobiy bo’ladi – Eronning izolyatsiyasi yumshab, u bilan mintaqaviy savdo va transport loyihalari hech qanday cheklovsiz amalga oshadi. Darhaqiqat, eronlik ekspertlar “Eron va AQSh o’rtasidagi tanglikning pasayishi Toshkent hukumatiga ham foyda keltiradi” deb hisoblashmoqda, chunki sanksiyalar bosimi kamaygach, O’zbekiston bimalol Eronga investitsiya yoki savdo hajmini oshirishi mumkin bo’ladi [9].

XULOSA

Eronning Markaziy Osiyodagi ishtiroki geosiyosiy raqobat va hamkorlik muvozanatida shakllanmoqda. U Xitoy va Rossiya bilan G’arbga qarshi turishga intilsa-da, manfaatlar to’qnashuviga yo’l qo’ymaslikka harakat qiladi. Hindiston bilan hamkorlik orqali mintaqadagi o’rnini mustahkamlashga urinmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari esa Eronni muhim hamkor sifatida ko’rib, pragmatik aloqalarni rivojlantirmoqda, biroq tashqi kuchlarga to’liq tayanishdan tiyilmoqda. Eron uchun mintaqa kelajakdagi strategik bozor sifatida qadrlanmoqda. Bu hamkorlik sekin, lekin barqaror tarzda chuqurlashib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Peyrouse, S. (2014). Iran’s Growing Role in Central Asia? Geopolitical, Economic and Political Profit and Loss Account. Al Jazeera Centre for Studies. <https://studies.aljazeera.net/en/dossiers/2014/04/2014416940377354.html>
2. Goble, P. (2024). Iran Increasing Its Influence in Central Asia With Expanded Trade across Turkmenistan. The Jamestown Foundation. <https://jamestown.org/program/iran-increasing-its-influence-in-central-asia-with-expanded-trade-across-turkmenistan/>
3. Reuters. (2021). Iran and China sign 25-year cooperation agreement. Reuters. <https://www.reuters.com/world/china/iran-china-sign-25-year-cooperation-agreement-2021-03-27/>

4. The Times of Central Asia. “Iran’s Non-Oil Exports to Uzbekistan Rise by 18%.” The Times of Central Asia, 18 Mar. 2024, <https://timesca.com/irans-non-oil-exports-to-uzbekistan-rise-by-18>.
5. “China Enhances Position as Central Asia's Economic Overlord.” Eurasianet, 29 Jan. 2025, <https://eurasianet.org/china-enhances-position-as-central-asias-economic-overlord>.
6. Umarova, Nargiza. How Does Central Asia Cooperate With Iran to Access World Markets? The Diplomat, August 2024. Retrieved from: <https://thediplomat.com/2024/08/how-does-central-asia-cooperate-with-iran-to-access-world-markets>
7. Jalilov, Orkhan. Uzbekistan to Join Iran’s Chabahar International Trade Project. Caspian News, January 25, 2022. Retrieved from: <https://caspiannews.com/news-detail/uzbekistan-to-join-irans-chabahar-international-trade-project-2022-1-25-37>
8. Sacks, David. Despite a Recent India-Iran Agreement, Challenges Loom for Chabahar Port. Stimson Center, May 2024. Retrieved from: <https://www.stimson.org/2024/despite-a-recent-india-iran-agreement-challenges-loom-for-chabahar-port>